

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 6-dekabr, № 253 (8876) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

AVTOMOBILSOZLIKDA SIFAT USTIDA ISHLASH, MAHSULOT TANNARXINI PASAYTIRISH ZARURLIGI TA’KIDLANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-dekabr kuni avtomobil sanoatida 2025-yil uchun ustuvor vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Bu masala o‘tgan oyda muhokama qilingan, mutasaddilarga rejalarni tanqidiy ko‘rib chiqish topshirilgan edi. Bu galgi taqdimotda Prezident ko‘rsatmalari asosida takomillashtirilgan chora-tadbirlar bayon qilindi.

Avvalo, ishlab chiqarish hajmi va sifatiga e’tibor qaratiladi. Hozir yiliga 400 mingdan ziyod avtomobillar sotilyapti. Aholi jon boshiga daromad oshayotgani bois bu tendensiya keyingi yillarda ham saqlanib qoladi. Bundan foydalanib, talabga yarasha mahsulot ishlab chiqariladi.

Qolaversa, O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi kutilmoqda. U holda, bozorda mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat yanada kuchayadi. Shuning uchun sifat ustida ishlash, mahalliylashtirish darajasini oshirish zarurligi ta’kidlandi.

Xususan, 2025-yilda “BYD” avtomobillarining 60 ta detalini mahalliylashtirish hisobiga elektromobil tannarxini pasaytirish mumkin. Ushbu kompaniya rahbariyati ham yurtimizdagi tarmoq korxonalari salohiyatini yuqori baholagan. Shu bois Mahalliylashtirishga ko‘maklashish markazi imkoniyatlarini ishga solib, hududiy korxonalar bilan kooperatsiya hajmini 2 karra oshirish vazifasi qo‘yildi.

Yana bir muhim masala – eksport. So‘nggi yillarda qo‘shni davlatlarda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgani natijasida 40 mingdan ortiq avtokomplektlar sotilgan. Kelgusi yil eksportni 700 million dollardan oshirish maqsad qilingan. Shu bilan birga, Samarqanddagi avtobus va yuk transporti korxonalarini ham tashqi bozorlarga olib chiqish kerakligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari tarmoqning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatiga alohida to‘xtaldi. Zamon talablariga moslashib, ishlab chiqarishni barqaror qilish, marketing va sifat bo‘yicha har kuni izlanish zarurligi ta’kidlandi.

O‘ZBEKISTON VA TURKMANISTON YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov 5-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqotda O‘zbekiston – Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalarini atroflicha muhokama qildilar.

Turkman xalqining milliy yetakchisi davlatimiz rahbariga Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ilgari erishilgan kelishuvlar ijrosining borishi va bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvlarga tayyorgarlik masalalari tomonlarning e’tibor markazida bo‘ldi.

O‘zaro muloqot va almashinuvlar sezilarli faollashgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘tgan oyda Turkmanistonda Hududlar forumi, sanoat ko‘rgazmasi va O‘zbekiston madaniyati kunlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Bundan tashqari, Ashxobod shahrida atoqli mutafakkir va shoir Maxtumquli Firog‘iy asarlarining o‘zbek tilidagi to‘plami taqdimoti hamda unga bag‘ishlab birgalikda suratga olingan badiiy film namoyishi bo‘lib o‘tdi.

Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard dollardan oshdi. Yuk tashishlar, shu jumladan, Turkmanboshi porti orqali ko‘paymoqda. “Shovot – Toshovuz” chegaraoldi zonasi qurilishi davom etmoqda. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va boshqa yo‘nalishlarda kooperatsiya kengaymoqda.

Energetika va suvdan foydalanish sohalarida o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Joriy xalqaro vaziyat va mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi.

Suhbat chog‘ida davlatimiz rahbari Turkmaniston yetakchisini yaqinlashib kelayotgan bayram – Betaraflik kuni bilan samimiy tabriklab, birodar turkman xalqiga farovonlik va ravnaq tiladi.

O‘zA.

Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish istiqbollari:

XALQARO VA MILLIY TAJRIBA

Samarqandda “Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning barqaror rivojlanishi uchun atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish istiqbollari: xalqaro va milliy tajriba” mavzuida xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Konferensiya



Anjumanda Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) ga a’zo davlatlar, Markaziy va Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Rossiya, AQSHning yetakchi mutaxassislari, Xalqaro atom energiyasi agentligi (XAEA), Butunjahon yadro assotsiatsiyasi hamda boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari, O‘zbekiston hukumati va parlamenti a’zolari, xorijiy va mahalliy ekspertlar ishtirok etdi.

Konferensiya avvalida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro anjuman ishtirokchilariga yo‘llagan murojaatini Prezident Matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi.

Davlatimiz rahbarining murojaatida iqlim o‘zgarishlarining salbiy ta’siri va an’anaviy energiya manbalari taqchilligi yaqqol sezilayotgan hozirgi sharoitda tinch atom hayot sifatini yaxshilash va milliy taraqqiyot strategiyalarini amalga oshirishda muhim muqobil yechim hisoblanishi ta’kidlangan. Atom energiyasi bo‘yicha ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi mamlakatimiz taraqqiyotiga kuchli turtki berishi hamda yangi ilmiy-texnologik ishlanmalar va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish uchun imkon yaratishiga ishonch bildirilgan.

Shuning uchun mamlakatimizda sohaning huquqiy-institutsional asosi mustahkamlandi, maxsus agentlik tashkil qilindi, soha uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimi joriy etildi. Yurtimiz jahonda birinchilardan bo‘lib, xalqaro talab va standartlarga muvofiq kichik quvvatli atom elektr stansiyalarini barpo qilishga kirishdi.

Prezidentimiz o‘z murojaatida Xalqaro atom energiyasi agentligiga O‘zbekistonning bu boradagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlayotgani uchun minnatdorlik bildirdi. Samarqanddagi anjuman Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda tinch atomdan samarali foydalanish bo‘yicha aniq tavsiya va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun g‘oyat zarur muloqot maydoni bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlab, uning ishiga muvaffaqiyat tiladi.

4

BARCHA YUTUQ VA MARRALARIMIZNING MUSTAHKAM POYDEVORI



Konstitutsiya milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, shu kunga qadar erishgan barcha yutuq va marralarimiz, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo‘lidagi sa’y-harakatlarimizning mustahkam poydevori hisoblanadi. Asosiy Qonunimizning jonajon O‘zbekistonimiz taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyatini yuksak qadrlaymiz.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Konstitutsiya – taqdirimizda

Insonning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, ozod va obod, farovon hayotga erishishida qanday omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi? Uning intellektual salohiyatimi? Yaqinlarning qo‘llab-quvvatlovimi? Yoki jamiyatda qaror topgan sog‘lom muhitmi? Bularning barchasi kishi kamolotiga, manfaatlariga xizmat qiladi, aslida. Yana bu omillar orasida huquq va erkinliklarimizni kafolatlab, burchlarimizni mustahkamlab turuvchi qonunlarning ham ahamiyati beqiyos.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ana shunday qonunlar majmuasi bo‘lib, mamlakatimizda demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyillarini ta’minlamoqda. Jamiyatimizda umuminsoniy qadriyatlar, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalarini mustahkamlab, fuqarolarning tinch va farovon hayot kechirishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda asos bo‘layotir.

O‘tgan yili milliy tariximizda birinchi marta umumxalq referendumi asosida Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilindi. Unda O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi. Inson qadri, huquq va erkinliklari kafolatlariga doir yangi bob va moddalar bilan boyitildi. Natijada Asosiy Qonunimiz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarning mustahkam huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

3- sahifaga qarang.

BELGILANGAN REJALAR FAOL AMALGA OSHIRILADI

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Pokiston Islom Respublikasining O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Ahmad Faruk bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Suhbat chog‘ida tomonlar O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar barqaror rivojlanib borayotganini, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida faol hamkorlik amalga oshirilayotganini qayd etdi. Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni bajarishga e’tibor qaratildi, bu jarayonda parlamentlar muhim o‘rin tutishi ta’kidlandi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirishda muhim o‘rin tutadigan parlamentlararo aloqalarni yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Savdo, iqtisodiyot, investitsiyalar, transport va turizm kabi ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlikni kengaytirish istiqbollariga alohida e’tibor qaratildi. Tomonlar mazkur sohalarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga va o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirishga xizmat qilishini ta’kidladi.

Ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga, ularning boy tarixiy-madaniy merosi bilan tanishishga qaratilgan qo‘shma madaniy tadbirlarni o‘tkazish imkoniyatlari muhokama qilingani uchrashuvning muhim jihati bo‘ldi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanishiga, ikki davlat xalqlari manfaatlari yo‘lida belgilangan rejalar faol amalga oshirilishiga ishonch bildirildi.

“Xalq so‘zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

PARLAMENT ISLOHOTLARINING HUQUQIY ASOSI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan “Yangilangan Konstitutsiya – parlament islohotlarining huquqiy asosi” mavzuida parlament konferensiyasi o‘tkazildi.

Unda quyi palata deputatlari, senatorlar, Yoshlar parlamenti a’zolari, tadqiqot institutlari, axborot-tahlil markazlari ilmiy xodimlari, professor-o‘qituvchilar, huquqshunoslar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Parlament faoliyatida o‘ziga xos an’anaga aylanib ulgurgan mazkur konferensiyada yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mamlakatimizda barcha darajadagi vakillik organlari rivoji uchun yangi konstitutsiyaviy-huquqiy makonni yaratishda hamda milliy parlamentarizm instituti faoliyati samaradorligini yanada oshirishda tutgan muhim o‘rni va ahamiyati xususida so‘z yuritildi.

2

O‘ZBEKISTON «2024-YILDA OSIYONING ENG YAXSHI SAYYOHLIK YO‘NALISHI» DEB TAN OLINDI

3-dekabr kuni Kuala-Lumpur shahrida Malayziyaning “Research House of Asia Media” mediakompaniyasi tomonidan o‘tkazilgan Osiyo mintaqasi mamlakatlarida tadbirkorlik hamda turizmni rivojlantirish bo‘yicha sotsiologik va marketing tadqiqotlari natijalari g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

E’tirof

Tadbirda Malayziya hukumati a’zolari, Osiyoning 20 dan ortiq davlatlari vakillari, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining yetakchi ishbilarmon doiralari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Marosimda 2024-yilda “Osiyoning eng yaxshi o‘ntaligi” va “Malayziyaning eng yaxshi o‘nligi” nominatsiyalari bo‘yicha erishgan yuksak yutuqlari uchun mukofotlar topshirildi.

“Yilning eng yaxshi yo‘nalishi” nominatsiyasida O‘zbekiston “Osiyoda 2024-yilgi eng yaxshi me’moriy meros sayohati yo‘nalishi” sifatida g‘olib deb topildi. Tegishli diplomni O‘zbekiston elchisi Karomiddin Gadoyevga Malayziya Qiroli Sulton Ibrohimning singlisi Mariam Zahro topshirdi.

Nufuzli mukofot taqdimoti chog‘ida ta’kidlanganidek, O‘zbekiston hududida YUNESKOning beshta jahon madaniy meros obyekti mavjud. Xususan, O‘zbekiston milliy o‘ziga xoslikni, ko‘plab islom madaniyati va me’morchiligi yodgorliklarini saqlab qolgan kam sonli mamlakatlardan. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlar noyob tarixiy obidalari bilan dunyoda juda mashhur. Chunki ushbu shaharlar tarixda Sharqning muhim davlat va ilmiy markazlari bo‘lgan.

Qayd etildiki, mazkur mukofot O‘zbekiston hukumatining butun dunyodan tobora ko‘proq sayyohlarni jalb etayotgan tarixiy obidalarni asrab-avaylash borasidagi sa’y-harakatlarining e’tirofidir.

“Top 10 of Asia”ning boshqa nominatsiyalarida Livan (eng yaxshi milliy taomlar), Iordaniya (arxeologik meros), Kuvayt (barqaror rivojlanish), Indoneziya (tez rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti) va Tojikiston (eng yaxshi tabiiy resurslar) g‘olib bo‘ldi.

“Research House of Asia Media” – bu Malayziyadagi eng yirik noshirlik uylaridan biri bo‘lib, “The Top 10 of Asia”, “The Top 10 of Malaysia”, “The Top 10 of Indonesia”, “The Top 10 of Singapore”, “The Top 10 of Thailand” va “The Top 10 of Lifestyle” kabi ingliz tilidagi jurnallarga egalik qiladi. Jurnallar har oyda 10 ming nusxadan bosiladi. Ular Malayziya va Janubi-Sharqiy Osiyodagi yetakchi kitob do‘konlari, diplomatik korpus, mehmonxonalar, savdo uyushmalari va davlat idoralariga tarqatiladi.

«Dunyo» AA.
Kuala-Lumpur

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 6-dekabr

Oliy Majlis Senatida

ORTIQCHA BYUROKRATIK TO‘SIQLAR OLIB TASHLANMOQDA

Kecha Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun muhokama qilindi.



Ushbu hujjat bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga Milliy gvardiya Bolalar bilan ishlash boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari xodimlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni, shu jumladan, bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik, jamoat joylarida tamaki yoki alkogol mahsulotini iste’mol qilganlik, shuningdek, voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etganlik bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqishga hamda jarima tariqasidagi ma’muriy jazo choralarini qo‘llashga doir vakolatlarini mustahkamlovchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Qo‘mita a’zolarining qayd etishicha, ushbu qonun Milliy gvardiya organlarining voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoyalashga doir faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qo‘mita majlisida “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qonun ham muhokama markazida bo‘ldi.

Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tishi va turarjoyi bo‘yicha xabardor qilishi hamda ularni yashash va turarjoyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish sohasidagi asosiy prinsiplar hamda tushunchalar belgilanmoqda.

Senatorlar taklif etilayotgan qonun bilan fuqarolarning erkin harakatlanish va yashash joyini tanlash bo‘yicha huquqlari mustahkamlanib, u huquqni qo‘llash amaliyotida hamda fuqarolarning yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tishi haqidagi murojaatlarni ko‘rib chiqishda ortiqcha byurokratik hamda korrupsiyaviy holatlarning oldi olinishiga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tdilar.

Muhokama yakuni bo‘yicha qo‘mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI TA’MINLANADI

Senatning Fan,ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi majlisida “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun atroflicha ko‘rib chiqildi.

Majlisda ushbu qonun oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimida tadbirkorlik faoliyati, shu jumladan, ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste’molchigacha bo‘lgan jarayonni nazorat qilib borish tizimini joriy etish uchun dastak hisoblanishi ta’kidlandi.

Shuningdek, qonun bilan qator masalalarga oydinlik kiritilayotgani qayd etildi. Xususan, qonunda asosiy tushunchalar, ya’ni “davlat zaxirasi”, “ijtimoiy ahamiyatga ega asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari”, “oziq-ovqat balansi”, “oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosining aylanma zaxirasi”, “oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligi”, “oziq-ovqat xavfsizligi”, “xavfsiz oziqlanish” hamda “xomashyo” tushunchalariga aniq ta’rif berilmoqda.

Qolaversa, oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi asosiy tamoyillar va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilanyapti.

Eng asosiysi, oziq-ovqat xavfsizligi sohasini tartibga solish mustahkamlanmoqda. Bunda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda Vazirlar Mahkamasining, vakolatli davlat organi, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlari aniq qilib ko‘rsatilgan.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasida vakolatli davlat organi sifatida Qishloq xo‘jaligi vazirligi belgilanmoqda. Unga respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, oziq-ovqat mahsulotlari hamda xomashyosini ishlab chiqarish bilan bog‘liq faoliyatni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar tayyorlash, oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish asosida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va rivojlantirishga doir qisqa, o‘rta hamda uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish kabi qator vakolatlar berilmoqda.

Shuningdek, qonunda oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha davlat tomonidan qanday choralar ko‘rilishi, oziq-ovqat balansini shakllantirish, iste’molchilarning hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi huquq va majburiyatlari aniq qilib belgilab qo‘yilyapti.

Qonun ijodkorlari tomonidan mazkur qonunning amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatdagi oziq-ovqat xavfsizligi sohasiga oid normalarni yagona hujjatga unifikatsiya qilish va tizimlashtirish hamda ushbu sohadagi munosabatlarni kompleks huquqiy tartibga solishga xizmat etishi aytildi.

Muhokama yakunida qo‘mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

HAR JIHATDAN MANFAATLI VA DOLZARB QONUNLAR – MUHOKAMADA

Senatning Agrar,suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi majlisida bir qator qonunlar muhokama qilindi. Senatorlar dastlab “Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi qonunni ko‘rib chiqishdi.

Qayd etilganidek, qonunda kosmik faoliyatga oid asosiy tushunchalar va prinsiplar, faoliyatni amalga oshirishning maqsadlari, kosmik faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari nazarda tutilgan.

Shuningdek, kosmik sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish, kosmik tizimlarning turlari, ya’ni Yerni masofadan zondlash, davlat kosmik monitoringi, kosmik aloqa tizimi, yuqori aniqlikdagi sun’iy yo‘ldosh navigatsiya tizimi, kosmik raketa komplekslaridan (kosmodromlardan) foydalanish, kosmik obyektlarni tamg‘alash, ijaraga berish, kosmik obyektlarni va texnika vositalarini utilizatsiya qilish, kosmik infratuzilma va faoliyat xavfsizligi, faoliyatni moliyalashtirish asoslari hamda xalqaro hamkorlik masalalari ham qonunda o‘z aksini topgan.

Qonunning qabul qilinishi kelgusida kosmik faoliyatni tartibga solish va sohaga huquqiy maqom berishga, kosmik faoliyat bo‘yicha mas’ul organlar hamda ularning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilashga, kosmik faoliyat natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarning oldini olish, atrof-muhitni muhofaza etish, xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, majlisda “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida”gi qonun ham muhokama etildi.

Mazkur qonunda ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholashning tushunchalari, maqsadlari, asosiy prinsiplari, sohadagi maxsus vakolatli davlat organi hamda uning vakolatlari, ekologik ekspertizaning turlari, obyektlari, subyektlari, ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish va rasmiylashtirish masalalari aks ettirilmoqda.

Shuningdek, strategik loyihalarning atrof-muhitga ta’sirini baholash tizimini xalqaro qabul qilingan normalarga moslashtirish maqsadida strategik ekologik baholash tizimini joriy etish nazarda tutilyapti.

Qonunning qabul qilinishi natijasida xorijiy investor va tadbirkorlar uchun ishonchli, shaffof ekologik baholash tizimi ta’minlanadi hamda o‘ziga jalb etuvchan investitsiya muhiti yaratiladi. Davlat ekologik ekspertizasi obyektlari, strategik rejalashtirish hujjatlari loyihalarini tayyorlash va qabul qilishda davlat hamda jamoatchilikning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlari ko‘rib chiqilishi ta’minlanadi.

“Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to‘g‘risida”gi qonun ham ko‘rib chiqildi. Qonunda “issiqxona gazlari” chiqarilishini kamaytirish natijasida hosil bo‘ladigan uglerod birliklari muomalasini amalga oshirishning tartibini belgilash hamda “issiqxona gazlari” chiqarilishining tizimli nazoratini ta’minlashga e’tibor qaratilgan.

Qonun mamlakatimizda iqlim o‘zgarishi bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarni jadallashtirish, atrof-muhit va ekologiyani yaxshilash hamda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratishga xizmat qilishi alohida ta’kidlandi.

Muhokama yakuni bo‘yicha qo‘mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

«Xalq so‘zi».

PARLAMENT ISLOHOTLARINING HUQUQIY ASOSI

1 Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov ta’kidlaganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada muhim hayotiy prinsiplar o‘z aksini topgan bo‘lib, ular hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” kitobida: “Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada yangi O‘zbekistonning siyosiy-huquqiy asoslari mustahkamlanib, milliy davlatchilik taraqqiyotining hozirgi muhim tarixiy bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishga oid ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi”, deb ta’kidlagani bejiz emas.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada zamonaviy davlatchiligimizning 5 ta muhim ustuni, ya’ni O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi qat’iy belgilab berildi. Ushbu tushunchalarning mazmuni tubdan takomillashtirilib, Bosh qomusimiz yangi bob va qoidalar bilan boyitildi. Hozirda Konstitutsiyamiz o‘zining asosiy prinsiplaridan kelib chiqib inson huquqlari va erkinliklari kafolatini ta’minlashda, jamiyat bilan shaxs munosabatlarida hamda mamlakatimizda davlat hokimiyati samarali tashkil etilishida mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, milliy parlamentimizning maqomi, uni shakllantirish tartiblari, vakolatlari mustahkamlandi. Bundan tashqari, Bosh qomusda qonunchilik jarayoni, qonun loyihalarini Qonunchilik palatasiga kiritish, bu loyihalarni ko‘rib chiqish va qabul qilish, ma’qullash, imzolash va matbuotda e’lon qilish kabi qoidalar o‘z aksini topdi.

Bosh qomusimizda ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi Vazirlar Mahkamasi, uning vakolatlari, uni shakllantirish tartibi ham mustahkamlab qo‘yilgani, parlamentning ijro etuvchi hokimiyat faoliyatini nazorat qilish mexanizmlari ochib berilgani konferensiya ishtirokchilari tomonidan e’tirof etildi.



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning zamonaviy normalari O‘zbekistonda yangi ijtimoiy-siyosiy muhitni shakllantirdi, davlat o‘ziga ulkan ijtimoiy-iqtisodiy majburiyatlarni oldi. Mamlakat o‘zini ijtimoiy davlat sifatida e’lon qildi, inson huquq va erkinliklarini himoyalashning mutlaqo yangi mexanizmlari joriy etildi. Davlat hokimiyatini tashkil qilishning samarali yangi modeliga o‘tildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga asosan yangi parlament, yangi hukumat shakllandi.

So‘zga chiqqanlar Konstitutsiyamizga parlament faoliyatiga oid ko‘plab yangi normalar kiritilgani, xususan, Qonunchilik palatasi bilan Senatning birgalikdagi hamda har bir palataning alohida-alohida vakolatlari va mas’uliyat sohalari aniq belgilab berilganini ta’kidladilar.

Shuningdek, dasturilamal hujjatda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan keyingi yillarda yurtimizda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy hayotimizning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish bo‘yicha strategik maqsadlar o‘z ifodasini topgani, Asosiy Qonunimiz davlatimizning yaqin va uzoq istiqboldagi barqaror taraqqiyoti hamda xalqimiz farovonligining mustahkam huquqiy asosi va ishonchli kafolatiga aylangani qayd etildi.

Konferensiya yakunida “qonunchilik taklifi” institutidan samarali foydalanish, partiya ro‘yxati asosida saylangan Qonunchilik palatasi deputatlarini o‘z siyosiy partiyalari fraksiyalari bilan munosabatlarini tashkil etish, qonunlar sifatini yaxshilash, deputatlarning o‘z saylovchilari va partiyalari bilan aloqalarini takomillashtirish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

“Xalq so‘zi”.

Fikr

Xushvaqt HAYITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:



– Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Shuningdek, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Umuman olganda, xalqimiz intilayotgan buyuk maqsadni amalga oshirishda qonun ijodkorligi jarayoni muhim o‘rin tutadi va bunda yangi tahrirdagi Konstitutsiya muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Akrom TOSHPO‘LATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti direktori:



– Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz asosida milliy parlamentimizning demokratik qiyofasi tubdan o‘zgardi. Xususan, parlament nazorati bilan bog‘liq ko‘pgina qoidalar ushbu hujjatdan o‘rin oldi. Oliy Majlis palatalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruzani eshitish, parlament tekshiruvini o‘tkazish instituti Konstitutsiyada mustahkamlandi. Qator parlament eshituvlari, shuningdek, parlament so‘rovini yuborish masalasi ham konstitutsiyaviy institut sifatida Bosh qomusimizga kiritildi.

Konferensiyada ijro etuvchi hokimiyat, ayniqsa, uning quyi bo‘g‘inlari faoliyati ustidan nazoratni tashkil qilish, davlat byudjeti ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish mexanizmlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha takliflar ilgari surildi. Shuningdek, palata qo‘mitalari hamda ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat inspeksiyalari bilan doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari ham muhokama qilindi.

Anjumanda ilgari surilgan yangi g‘oya va tashabbuslar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o‘z aksini topgan hayotiy tamoyillarni to‘liq ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

YOSHLAR UCHUN MULOQOT MAYDONI VA QIZG‘IN TAASSUROTLAR

Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32 yilligi munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” doirasida bir qator uchrashuvlar tashkil etilmoqda.

Ochiq eshiklar kuni

Bir haftadan buyon o‘tkazib kelinayotgan uchrashuvlar davomida talabalardan tortib o‘qituvchilargacha, maktab o‘quvchilaridan tortib faol fuqarolargacha bo‘lgan mehmonlar Konstitutsiyaning yaratilishi tarixiga bag‘ishlangan arxiv hujjatlari ko‘rgazmasi bilan yaqindan tanishtirilyapti.

“Xalq uyi”da talabalarning deputatlardan o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishlari uchun muloqot maydoni yaratilgan bo‘lib, yosh avlod vakillari bilan bevosita muloqot yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ko‘rgazma ikki tarixiy davrga bo‘lingan holda uyushtirilgani, ya’ni birinchi bo‘limdan 1992 yilda Konstitutsiyaning qabul qilinishi, ikkinchi bo‘limdan esa yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning yaratilishiga oid jami 100 ga yaqin eksponatlar – hujjatlar va fotomateriallar namoyish etilgani barchada birdek katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Uchrashuvlar doirasida ishtirokchilar uchun Qonunchilik palatasi bo‘ylab ekskursiya tashkil etilib, talaba-yoshlarga quyi palata, siyosiy partiyalar fraksiyalari hamda qo‘mitalar ish faoliyati, qonunlarni qabul qilish jarayoni haqida ham so‘zlab berilmoqda.

Shuningdek, yoshlarga qonun loyihalarini ishlab chiqish, ularni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish, birinchi va ikkinchi o‘qishga tayyorlash, yalpi majlis muhokamalariga kiritish bilan bog‘liq muhim masalalar yuzasidan atroflicha ma’lumot berilayotir.

Quyi palatadagi uchrashuvlardan so‘ng yigit-qizlarning taassurotlari bilan qiziqdik.

Javohir MUZAFFAROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi:

– Qonunchilik palatasiga ilk marotaba kelishim. Ilgari palata haqidagi yangiliklarni faqat televideniye, ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatib borardim. “Xalq uyi”dagi uchrashuvlarimiz davomida palata faoliyati bilan tanishish barobarida, o‘zimizni qiziqtirgan savollarimizga batafsil javob oldik.

Farangiz SHAROFOVA,
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi talabasi:

– “Ochiq eshiklar kuni” doirasida o‘tkazilgan muloqotlarda qonun ijodkorligi, siyosiy partiyalar fraksiyalari va qo‘mita ish uslublari hamda parlamentarizm sohasidagi yangiliklar haqida ko‘plab ma’lumotlar oldik. Ayniqsa, Oliy Majlis tarixi aks etgan muzey, parlament kutubxonasi hamda qonunlar qabul qilinadigan majlislar zali bizda katta qiziqish uyg‘otdi. Bu uchrashuvlar “xalq uyi”ga tashrif buyurgan yoshlarimiz xotirasida hali uzoq yillar davomida Bosh qomusimizga bo‘lgan hurmat va muhabbatni eslatib turishi aniq.

Behro‘z NORMO‘MINOV,
Sergeli tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchisi:

– Deputatlar bilan muloqot chog‘ida qabul qilinayotgan qonunlar mazmuni, muhokamalar jarayoni, tortishuvlar, bahs-munozaralar haqida tushunchaga ega bo‘ldik. Shu bilan birga, Konstitutsiyamiz tarixiga bag‘ishlangan fotoko‘rgazmalarda Bosh qomusimizning yaratilish tarixi va yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi jarayoni bilan bog‘liq eng yorqin voqealar bilan yaqindan tanishdik.

Palataning katta majlislar zaliga tashrifimiz “ochiq eshiklar” kunining eng hayajonli nuqtasi bo‘ldi.

“Xalq so‘zi”.

Mushohada

MALAKALI TIBBIY XIZMATDAN FOYDALANISH IMKONI

Mamlakatimiz hayotining turli sohalarida izchil davom etayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijalarini mustahkamlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Xalqimizning takliflari,xohish-istaklari asosida ishlab chiqilgan Asosiy Qonunimizda, avvalambor,davlat xalq irodasini ifodalab,uning manfaatlariga xizmat qilishi aks etgani inson qadrini yuksaltirishning poydevori mustahkam ekanidan dalolatdir.

Zero, unda fuqarolar huquq va erkinliklarini kengaytirish, davlat hokimiyati samaradorligini oshirish, sud-huquq tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni rivojlantirishga oid muhim normalar qat’iy belgilandi. Ayniqsa, inson salomatligi muhofazasiga oid huquqiy kafolatlar nazarda tutilgani e’tiborga molik.

Binobarin, Bosh qomusimizning 48-moddasida har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egaligi mustahkamlandi. Davlat sog‘liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholi sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash choralarini ko‘rishi, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi ifodalandi. Bundan anglashiladiki, aholi sihat-salomatligini asrash, har bir insonning omonlikda hayot kechirishini ta’minlash huquqiy jihatdan kafolatlangan.

Shu o‘rinda keyingi yillarda yurtimizda aholi salomatligini mustahkamlash, kasallikni erta aniqlash va davolashga alohida e’tibor qaratilayotganini qayd etish joiz. Eng avvalo, ushbu yo‘nalishda muhim sanalgan birlamchi bo‘g‘inni takomillashtirish yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilyapti. Bu sa’y-harakatlar natijasida olis hududlarda istiqomat qiluvchi aholi talab va ehtiyojlari chuqur o‘rganilmoqda, onalar va bolalarni xavfli va yuqumli kasalliklardan muhofaza qilish choralari o‘z vaqtida ko‘rilmoqda. Xotin-qizlarda uchrayotgan ko‘krak bezi va bachadon bo‘yni bilan bog‘liq xastaliklarning oldini olish, chaqaloqlarning irsiy kasalliklar bilan tug‘ilishini kamaytirishga sezilarli darajada erishilayotir. Muxtasar aytganda, xalqimizga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatilib, ularning konstitutsiyaviy huquqlari ta’minlanyapti.



Birlamchi bo‘g‘inni rivojlantirishdan tashqari, nozik va murakkab jarrohlik amaliyotlari yurtimizda, hatto, eng chekka hududlarda ham muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini yutuqlarimizdan biri deyish mumkin. Xalqimiz endilikda turli operatsiyalarni o‘tkazish uchun olis yurtlarga borish tashvishidan qutuldi. Bu ham fuqarolar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar natijasidir.

Mazkur sohadagi islohotlardan yana biri – tibbiy sug‘urta mexanizmlari tatbiq etilishi bilan bog‘liq. 2024-yil yakuniga qadar “Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” axborot tizimlari joriy qilinishi rejalashtirilgan. Muassasalar zarur texnika va tarmoq qurilmalari bilan jihozlanib, tibbiyot xodimlari ulardan foydalanish bo‘yicha o‘qitiladi. Bu tizimning ahamiyati shundaki, tibbiyotda natijaga asoslangan moliyalashtirish usullari tatbiq qilinadi. Sug‘urta doirasida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish va dori vositalarini taqdim etish Davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Ushbu sa’y-harakatlar “Adolat” SDP va uning fraksiyasi maqsad va vazifalari bilan hamohang bo‘lib, sog‘liqni saqlash masalasiga birinchi navbatdagi ijtimoiy vazifa sifatida qaraymiz. Har bir insonning malakali tibbiy xizmatdan foydalanishdek konstitutsiyaviy huquqi ro‘yobga chiqarilishini kafolatlash yo‘lidagi ishlarimizni yanada kuchaytiramiz va bu boradagi qonunchilikni takomillashtirishga hissamizni qo‘shamiz.

Manzura SALIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Talabalar va o‘quvchilar uchun qishki ta’til 25-dekabrdan boshlanib, 2025-yilning 7-yanvariga qadar davom etadi.

BARCHA YUTUQ VA MARRALARIMIZNING MUSTAHKAM POYDEVORI

Davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag`allikni qisqartirish choralarini ko`radi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasidan.

“QO‘LDA ISHIM, HAYOTDA MAQSADIM BOR”

**Sardorbek ZIYODOV,
usta-hunarmand (Jarqo‘rg‘on tumani):**



– Mamlakatimizda fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Buning samarasini o‘z hayotim misolida ko‘rib turibman.

Maktabni tamomlaganimdan keyin oliygohga o‘qishga kira olmadim – kerakli ballni to‘plashga bilimim yetmadi. Men kabi yoshlarning ba’zilari xorijga mavsumiy ishga ketishdi, moddiy imkoniyati borlari esa nodavlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirdi.

O‘zimni boshi berk ko‘chada qolib ketganday his etib yurgan kunlarning birida mahallamizning yoshlar yetakchisi uyimizga keldi. Suhbat davomida muammolarni, maqsadlarimni tingladi. Ishsiz yoshlar ro‘yxatida ekanim tufayli men bilan gaplashish uchun atay kelganini, bundan buyon “yoshlar daftari”ga kiritilishimni aytdi. Asosiysi, buning afzalliklari, imkoniyatlari haqida tushuntirarkan, yoshlikka xos shijoat, jo‘shqinlik va mardlikni, ezgu orzu-intilishlarni amaliy harakatga aylantirib, salmoqli natijalarga erishish uchun inson o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib yashashi kerakligini ta’kidladi. Bundan ruhlanib, qalbimda jo‘shqinlik paydo bo‘ldi va galdagi vazifalar, rejalarni tuzdik.

Dastlab mahallamizdagi chilangar ustaga shogird tushdim. Hunar o‘rganishda o‘zimda ham ishtiyoq yuqoriligidanmi, bir oy o‘tmasdan qo‘lim o‘rganib, ta’bir joiz bo‘lsa, temirlar bilan “til topishdim”. Temir darvoza, turli panjara va to‘siqlar, g‘ildirakli aravalarni mustaqil tayyorlaydigan bo‘ldim. Bankning imtiyozli 33 million so‘mlik kredit mablag‘i evaziga zarur bo‘lgan barcha asbob-uskunani xarid qildim.

Qarangki, bugun shogird emas, ustozim bilan teng sherik bo‘lib ishlayapman. Chiqarayotgan mahsulotlarimiz xaridorgir, ularni sotish uchun bozor qidirmaymiz. Daromadimiz yaxshi.

Aytmoqchi bo‘lganim shuki, bugun yoshlarning kamoloti yo‘lida katta ishlar bajarilyapti, ular bilan ishlashda yangi tizim o‘z samarasini berayotir. Jumladan, men ham “yoshlar daftari” orqali o‘z yo‘limni topdim. Qo‘lda ishim, hayotda maqsadim bor. Davlatimiz ko‘magi bandligimni ta’minlash bilan birga, orzularimga qanot bo‘ldi.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo`l qo`yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasi.

AZALIY ORZULARIMIZ RO‘YOBGA CHIQDI

**Mastura ERGASHEVA,
ziyoratchi (Andijon viloyati):**



– Har gal Andijondan Buxoroi sharifga kelib, aziz-avliyolar mangu qo‘nim topgan qadamjolarni ziyorat qilganimda o‘zimni qushday yengil his etaman. Yetti pir ziyoratgohida yetti iqlimdan kelayotgan sayyohlarni uchratarkanman, ko‘nglimni shukronalik chulg‘ab oladi.

Diniy amallarni emin-erkin bajarayotgan mo‘min-musulmonlarni ko‘rib, shunday tinch va osoyishta yurtda yashayotganimdan g‘ururlanaman. Negaki, dinga e’tiqod masalasi Asosiy Qonunimizda ham alohida belgilab qo‘yilgan.

Chamasi, o‘n yilcha muqaddam Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Sayyid Amir Kulol qadamjolarini ziyorat qilib, shundan so‘ng muqaddas Haj ziyoratiga yo‘l olgandim. O‘shandan buyon imkon tug‘ilgan zahoti Buxoroga – ziyoratga yo‘l olaman. Ulug‘ mutafakkirlar, diniy va dunyoviy bilim sohiblari qoldirgan boy ma’naviy merosdan farzandu nevaralarimni ham bahramand etishga harakat qilaman. Zero, “Qo‘l ishda, ko‘ngil Allohda bo‘lsin”, “Har qadamda hushyor bo‘l”, “O‘y-xayolingni bir joyga jamla” mazmunidagi tamoyillar, komil inson ta’lim-tarbiyasiga oid o‘gitlar hech qachon qimmatini yo‘qotmaydi.

Xalqimiz uchun bugungi emin-erkin hayotning qadri bo‘lakcha. Sobiq ittifoq davrida diniy qarashlar qattiq ta’qibga olinardi. Ota-bobolarimiz, momolarimiz turli tazyiq va zulmlardan ham ma’nan, ham jismonan aziyat chekkan. Shukrki, bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ma’naviy-ma’rifiy islohotlar xalqimizning azaliy orzularini ro‘yobga chiqardi. Buni jahon ahli ham e’tirof etmoqda.

O‘ZIM, BUTUN OILAM MUHOFAZASIDAN KO‘NGLIM TO‘Q

**Muhammadali ALISHEROV,
mehnat faxriysi
(Namangan viloyati):**

Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo`qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo`qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot huquqiga ega.

Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo`lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasi.

– Inson borki, mazmunli hayot kechirishni xohlaydi. Umri davomida moddiy imkoniyat va ma’naviy qadriyatlar unga yo‘ldosh bo‘ladi. Haq-huquq va kundalik manfaatlar shaklida qondiriladigan bu qadriyatlarning barchasi Bosh qomusimizda belgilab qo‘yilgan.

Masalan, men salomatligim doim joyida bo‘lishi uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanimdan hamisha xotirjam yashayman. Ushbu huquqimdan foydalangan holda tez-tez bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tib turaman. Nafaqaga chiqqanimga o‘n besh yildan oshayotganiga qaramay bardam va tetik ekanim shundan. Pensiyam ham yetarli. O‘z vaqtida yaxshi ishlaganimiz bois ijtimoiy himoya idorasi ko‘magi bilan tez-tez sihatgohga borib turaman.

Eng asosiysi, nafaqat o‘zim, oilamizning barcha a’zosi turish-turmushi davlat muhofazasida ekanidan doim ko‘nglim to‘q. Turmush o‘rtog‘im yoshga doir pensiya oladi. Uch yil avval to‘ng‘ich farzandim Abdumutallim jiddiy xastalanib, oyoqlari ishlamay qoldi. Davolanish kutilgan natijani bermagach, ijtimoiy himoya tizimi uni otaliqqa oldi. Mutaxassislar unga ikkinchi guruh nogironligini belgiladi. Va shunga yarasha nafaqa bilan ta’minlandi. Bu esa dori-darmoni, kundalik xarajatlariga asqatyapti. Ayniqsa, yaqinda unga elektron harakatlanadigan nogironlik aravachasi berishganida farzandimning ko‘ngli tog‘day o‘sganini ko‘rib, to‘lqinlanib ketdim. Qarangki, ilgari do‘stlari o‘g‘limni ko‘rgani kelishgan bo‘lsa, endi o‘g‘lim ham ularni yo‘qlab turibdi.



Bu bilan birgina bizning xonadonimiz misolida davlatimizning o‘z fuqarolariga ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rligini ta’kidlamoqchiman. Insonparvarlikni bayroq qilgan Konstitutsiyamizning xalqchilligi, fuqarolar manfaatini huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘ygan boshqa qirralari bisyorki, bunga faqat shukronalik orqali javob qaytarsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.



Сирожидин ВОХИДОВ олган сурат.

MADANIY, ILMIY VA TEXNIKAVIY TARAQQIYOT KAFOLATI

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g`amxo`rlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasidan.

**Erkin MUSURMONOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti kafedra mudiri, filologiya fanlari doktori:**



– Bosh qomusimizda davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilishi belgilangan. Buning hayotiy ifodasini har qadamda kuzatish mumkin. Masalan, mamlakatimizda yashovchi boshqa millat farzandlarining o‘z ona tillarida tahsil olishlari uchun keng imkoniyat yaratilgan. Shuningdek, turli tillarda teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar efirga uzatilib, gazetalar chop etilmoqda. Bu jamiyatning madaniy yuksalishiga, har xil millatlarning ona tillari saqlab qolinishiga, urf-odat va an’analari bardavom bo‘lishiga xizmat qiladi.

Jamiyatning ilmiy va texnikaviy taraqqiyoti haqida gap ketganda, keyingi yillarda oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarga to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Yurtimizda yangi oliy ta’lim muassasalari ochilmoqda. Xususiy oliygohlar faoliyat ko‘rsata boshladi. Xorijdagi nufuzli institut va universitetlar bilan hamkorlik kengaydi, akademik almashinuvlar yo‘lga qo‘yildi. Eng muhimi, ilmiy tadqiqotchilar, yosh olimlar va doktorantlarning samarali ilmiy faoliyat olib borishi uchun sharoitlar yaxshilanib bormoqda. Olimlar yaratgan ilmiy yangilik va ixtirolar xalq xo‘jaligiga tatbiq etilayotgani ularning mamlakat va jamiyat hayoti uchun naqadar muhim ekanini ko‘rsatmoqda.

Bunga o‘z faoliyatimdan bir misol keltirsam. Samarqand shahrining “tashrif qog‘ozi” hisoblangan Registon ansambli ijodkori – ashtarxoniylar davlati bosh qo‘mondoni, Samarqand hokimi Bahodir Yalangto‘sh haqida deyarli ko‘pchilik bilmasdi. Qo‘shni Qozog‘istonda jamoatchilik o‘rtasida esa Registon bunyodkori sifatida Bahodir Yalangto‘shga adash bo‘lgan qozoq ovullaridan birining oqsoqoli Bahodir Jalanto‘s Seyitquli uli e’tirof etilardi. Eng yomoni, shu vaqtga qadar qozoq ovuli oqsoqoli bilan Samarqand hokimi alohida-alohida tarixiy shaxs ekaniga na bizning, na qardoshlarimizning ilmiy jamoatchiligi e’tibor qaratishadi. Tarixiy manbalarni izlab Samarqand hokimi, Registon bunyodkori Bahodir Yalangto‘shning hayoti va faoliyati haqidagi asl haqiqat bitilgan maqolani ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qildim. Qardoshlarimizning taklifi bilan Qozog‘istonda tashkil etilgan xalqaro anjumanda ayni shu mavzudagi ma’ruzam bilan qatnashdim. Qozoq ilmiy jamoatchiligi bu yangilikni iliq qabul qildi va mehnatimni e’tirof etdi.

Bu yutuqlar ham mamlakatimizda milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlar va madaniyatni saqlash hamda rivojlantirish borasida yaratilgan erkinlik va huquqlarimiz kafolati mevasidir.

OROLBO‘YI EKOTIZIMI YAXSHILANMOQDA

Davlat Orolbo`yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko`radi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasidan.

**Ulbosin MIRZANAZAROVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining maslahatchisi:**



– Sir emas, Orol fojiasi nafaqat mamlakatimiz, balki butun jahon uchun jiddiy muammoga aylandi. Bu hududdan havoga ko‘tarilgan tuz va qum zarralari dunyoning eng olis puchmoqlaridan ham topilgani so‘zimiz isboti.

Shu bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z faoliyatining dastlabki davridanoq Orolbo‘yidagi ekologik vaziyatni yaxshilash, bu yerda yashayotgan aholining og‘irini yengil qilishga alohida e’tibor qaratdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2018-yilda Orolbo‘yining qurigan tubiga keng ko‘lamda saksovul va cho‘lga chidamli boshqa o‘simliklar ekish orqali yashil qoplamalar barpo etish ishlari boshlandi.

Prezidentimizning “Respublikada yashillik



darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 23-noyabrdagi Farmoni bu boradagi ishlarni yanada jonlantirdi. Butun mamlakatimizda bo‘lgani kabi bu yerda ham ekologik vaziyatni yaxshilash, global iqlim o‘zgarishlarining salbiy ta’sirini yanada yumshatish, cho‘l o‘simliklaridan yashil qoplamalar barpo qilish ishlari izchil davom ettirilayotir.

Bu borada 2024-yilning o‘tgan davrida o‘rmonlashtirish tadbirlarini amalga oshirish uchun o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan 489,7 tonna cho‘l o‘simliklari urug‘lari, jumladan, 159,256 tonna saksovul va 330,46 tonna qorabarak cho‘l o‘simliklari urug‘lari terildi va ekish ishlari tashkil etilmoqda.

Shukrki, mashaqqatli mehnatlar besamar ketayotgani yo‘q. Orol dengizining qurigan tubidan chang va qumlarning havoga ko‘tarilishi keskin kamayishiga erishildi. Bu Bosh qomusimizning har bir moddasi Orolbo‘yining olis hududlarida ham hayotni o‘zgartirishga, insonlar orzularini ro‘yobga chiqarishga poydevor bo‘layotgani ifodasidir.

“Xalq so‘zi”

INSON QADRI ULUG‘LANAYOTGAN YURTDA ASHAYAPMIZ

**Hasan JOMIRZAYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi
(Koson tumani):**



Davlat uy-joy qurilishini rag`batlantiradi va uy-joyga bo`lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minlash tartibi qonun bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 47-moddasidan.

– Men va singlim juda yoshligimizda ota-onadan yetim qolganmiz. Qarindoshlarimiz qo‘lida katta bo‘ldik. Shu bilan bir qatorda, davlatimizning biz kabi ko‘ngli yarim insonlarga bo‘lgan g‘amxo‘rligini doimo his etib turdik. Bugun ham bu e’tibor va g‘amxo‘rlik natijasida hayotda o‘z o‘rnimizni topib, ertangi yorug‘ kelajagimiz sari dadil odimlayotirmiz.

2023-yilda davlatimizning biz kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun ajratilgan alohida imtiyozlari asosida kamina Toshkent davlat yuridik universitetiga, singlim Zuhra esa Qarshi davlat universitetiga o‘qishga kirdik. Ikkalamiz ham stipendiya olamiz, yotoqxona bilan ta’minlandik.

Yakunlanib borayotgan 2024-yil esa hayotimda yana bir o‘chmas iz qoldirdi. Menga Koson tumani markazidagi “Yangi O‘zbekiston” massivida barpo etilgan zamonaviy uydan 2 xonali xonadon barcha jihozi bilan berildi.

“Uyi borning ko‘ngli to‘q”, degan gap bejiz aytilmagan. Mening ham ertamdan ko‘nglim to‘q. Davlatimiz tomonidan menga massivdan zamonaviy uy berilishi eng katta muammoimni hal qildi. Endi bor e’tiborimni ta’lim olishga qaratib, kelajakka yorug‘ niyatlar bilan intilyapman.

Albatta, insoniylikning eng oliy vazifalaridan biri – ehtiyojmandlarga yordam berish. Bu ezgu qadriyatlar nafaqat insoniy burch, balki xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy mentalitetining ajralmas qismi hamdir. Quvonarlisi, aholining ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy himoyalash, qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun ko‘maklashish Bosh qomusimizda ham belgilab qo‘yilgan. Shu tamoyil asosida qator qonun hujjatlari qabul qilindi, dasturlar ishlab chiqildi. Ular asosida bugun ijtimoiy himoyaga muhtoj minglab oilalar, yigit-qizlar yangi uy-joylarga ega bo‘lmoqda.

Inson qadri ulug‘lanayotgan yurtda yashayotganimizdan faxrlanamiz.

Buxoro — Urganch — Xiva temir yo‘lini elektrlashtirish ishlarini yakunlash doirasida yuqori tezlikda harakatlanuvchi “Afrosiyob” poyezdi sinovdan o‘tkazildi.

Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish istiqbollari:

XALQARO VA MILLIY TAJRIBA

1 Konferensiyaning ochilish marosimida Xalqaro atom energiyasi agentligi bosh direktori Rafael Grossi qayd etganidek, tadbir atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishga oid asosiy masalalar va imkoniyatlarni muhokama qilish, milliy va xalqaro darajadagi ekspertlar o‘rtasida tajriba hamda bilim almashish uchun muhim platforma bo‘lib, o‘z navbatida, IHTga a’zo davlatlarning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan, kichik quvvatli atom elektr stansiyalari qurilishini qonunchilik va institutsional tartibga solish, ekspluatatsiya xavfsizligi va atom energiyasidan turli sohalarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy masalalarni muhokama qilish kun tartibidagi dolzarb mavzulardan biridir.



Konferensiya davomida ishtirokchilar xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, atom sanoatini qonuniy tartibga solish, ijtimoiy, ekologik va xavfsizlikning turli jihatlari, yadroviy texnologiyalarni tinch maqsadlarda rivojlantirish, kadrlar tayyorlashning turli masalalarini ko‘rib chiqdi.

Xalqaro konferensiyaning yalpi sessiyasi doirasida atom energetikasini rivojlantirish bilan bog‘liq asosiy masalalar muhokama qilindi. Sessiya ushbu sohaning yetakchi mutaxassislari va ishtirokchilarini birlashtirdi, bu esa fikr almashish va barqaror rivojlanishga erishish uchun atom energiyasidan samarali va xavfsiz foydalanish g‘oyasini ilgari surishga yordam berdi.

XAEA bosh direktori Rafael Grossi atom energetikasini rivojlantirish tashabbuslari va strategiyalarining global sharhini taqdim etdi. O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri Jo‘rabek Mirzamahmudov mamlakatimizda atom energetikasining milliy dasturlari va istiqbollari xususida so‘z yuritdi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi direktori Azim Ahmedxo‘jayev O‘zbekistonning ushbu sohadagi tajribasi va joriy loyihalari bilan o‘rtoqlashdi.

Yalpi sessiyadan so‘ng atom energetikasi sohasida hamkorlik bo‘yicha xalqaro tashkilotlar, vazirlik va idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish subyektlari o‘rtasida hujjatlar imzolandi.

Konferensiya doirasidagi panel sessiyalarda Islom hamkorlik tashkiloti mamlakatlarida atom energiyasidan foydalanish istiqbollari o‘rganilib, O‘zbekistonda atom energetikasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro standartlar va talablar asosida yadroviy obyektlar xavfsizligini ta’minlashda xalqaro tashkilotlar, xususan, Xalqaro atom energiyasi agentligining tutgan o‘rni va roli muhokama qilindi.

Unda ishtirokchilar yadro energiyasining ekologik va ijtimoiy jihatlari yetakchi o‘rinni egallashi, atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish ESG standartlari va BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari kontekstida IHT mamlakatlarida barqaror rivojlanishga erishishga qanday hissa qo‘shishi mumkinligini ko‘rib chiqdi. Bundan tashqari, atom energetikasini barqaror rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan innovatsiyalar va texnologiyalarga, jumladan, atom energiyasidan tinch maqsadlarda xavfsiz va samarali foydalanishning muhim negizi bo‘lgan ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratildi.

Ta’kidlanganidek, O‘zbekistonda atom texnologiyalari, xususan, yadro tibbiyoti, izotop ishlab chiqarish, ma’lumotlar markazlari va tadqiqot reaktorlarini rivojlantirish mamlakatning innovatsion iqtisodiyotga o‘tishda harakatlantiruvchi kuchga aylanishiga turtki bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, konferensiya O‘zbekistonning xalqaro tajribani integratsiyalash va ilg‘or tajribalarni joriy etishga tayyorligini namoyish etadi, bu esa atom sanoati xavfsiz va samarali rivojlanishining asosiy negizidir.

Anjuman yakunida atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish va xavfsizlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlandi, shuningdek, Markaziy Osiyo va IHT mamlakatlarida kelgusi hamkorlik yo‘llari taklif etildi.

Abdulaziz YO‘LDOSHEV (“Xalq so‘zi”).
Yunus BO‘RIYEV olgan suratlar.

So‘z – tadbir ishtirokchilariga

Rafael GROSSI,
Xalqaro atom energiyasi agentligi bosh direktori:

– Bugun dunyoda kuzatilayotgan iqtisodiy, ekologik muammolarga yechim topish va davlatlarning iqtisodiy rivojlanishida atom energiyasidan foydalanishning ahamiyati oshib bormoqda. Tahlillarga ko‘ra 2050-yilga borib atom energetikasidan foydalanish uch barobar oshishi kutilayotir. Shuning uchun ayni paytda rivojlanayotgan davlatlarning aksariyati bunga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu borada keyingi yillarda O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarga guvohmiz va buni qo‘llab-quvvatlaymiz.

Kuni kecha uchrashuvimiz chog‘ida Prezident Shavkat Mirziyoyev bizga o‘z g‘oyalarini tushuntirib berdi. O‘zbekistonning bugun jadal rivojlanayotgan iqtisodiyoti uchun atom energiyasidan foydalanish g‘oyat muhim sanaladi. Prezident bunda birinchi o‘rinda ushbu texnologiyalardan foydalanishda xavfsizlik muhimligini alohida ta’kidladi. Shu bois tinch atom sohasini rivojlantirish borasida ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish yuzasidan qo‘shma “Yo‘l xaritasi”ni qabul qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Sama Bilbao-i-LEON,
Butunjahon yadro assotsiatsiyasi direktori:

– Zamonaviy sharoitda butun dunyoda atom energiyasiga bo‘lgan talabning ortib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Buning sababi shundaki, ko‘plab davlatlar atmosferaga uglerod chiqindilarini kamaytirish vazifasiga duch kelmoqda. Atom energiyasi ushbu muammolarni hal qilishga samarali hissa qo‘shishi mumkin. O‘tgan yilgi iqlim sammitida 199 mamlakat bunday energiya manbalarini rivojlantirish atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan juda muhim ekanini bildirdi. Shu yil Bokuda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda esa 30 dan ortiq davlatlar atom stansiyalaridan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarishni uch baravar oshirish maqsadida ish olib borishga kelishib oldi. Shunday qilib, biz dunyoda iqtisodiyot va ijtimoiy sohani energiya bilan ta’minlashning bunday modeliga qiziqish jadal o‘sib borayotganini ko‘ryapmiz.

Shubhasiz, atom energetikasi mamlakatlarning uglevodorod resurslarining global bozoriga bog‘liqligini kamaytirish va ularning energiya xavfsizligini oshirish uchun asos yaratadi.

Andrey ROJDESTVIN,
“REP” AJ bosh direktori (Rossiya Federatsiyasi):

– Samarqandda bo‘lib o‘tgan konferensiyaning dolzarbligi uning ishida jahon yadro sanoatining yetakchi mutaxassislari ishtirok etganida ko‘rinadi.

Mutaxassislar global ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishni atom energetikasining rivojlanishi bilan bog‘lashadi. Ushbu sanoat yuqori malakali kadrlar tayyorlashni rag‘batlantiradi, infratuzilmani rivojlantirishga va ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi.

O‘zbekiston, shuningdek, yuqori texnologiyali energetikani shakllantirish orqali mamlakatni barqaror rivojlantirish foydasiga o‘z tanlovini amalga oshirdi. Mamlakat milliy energetika tarixida yangi sahifa ochadigan va yuqori texnologiyali iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun zamin yaratadigan kam quvvatli atom stansiyasini qurish bo‘yicha noyob loyihani amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

Azim AHMEDXO‘JAYEV,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi direktori:

– Atom energiyasi barqaror rivojlanish, energiya xavfsizligiga erishish va iqlim xavfini kamaytirish uchun muhim vositadir. So‘nggi yillarda iqlim kun tartibining keskinlashishi munosabati bilan Islom hamkorlik tashkilotining ko‘plab mamlakatlari atom energetikasining imkoniyatlari va istiqbollariga qiziqish bildirmoqda. Mazkur sohada tajriba va vakolatlar almashish bo‘yicha xalqaro hamkorlik alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli Samarqanddagi uchrashuv ko‘plab davlatlar mutaxassislari orasida katta qiziqish uyg‘otdi. Konferensiyada yadro sanoati xavfsizligi, qonunchilikni tartibga solish, u bilan bog‘liq ijtimoiy, ekologik jihatlar, tinch maqsadlarda yadro texnologiyalarini rivojlantirish va kadrlar tayyorlash masalalari batafsil ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston tinchlik maqsadlarida atom energiyasidan foydalanishni faol rivojlantirmoqda hamda atom texnologiyalaridan xavfsiz foydalanish, ilm-fanni barqaror rivojlantirish va malakali mutaxassislar tayyorlashga e’tibor qaratib, o‘z milliy atom tarmog‘ini qurmoqda. Biz 2030-yilgacha milliy atom infratuzilmasini barpo etish orqali mamlakatni ishonchli, iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik toza elektr energiyasi manbai bilan ta’minlashni rejalashtirganmiz.

Tadbir ishtirokchilarining bildirishicha, mazkur konferensiya atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish va global barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha IHTga a’zo davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlashga katta hissa qo‘shadi.

Kasaba uyushmalarining hamkorlik strategiyasi

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Tojikiston mustaqil kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamkorligida Dushanbe shahrida Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashi vakillari uchun “Markaziy Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va mehnat migratsiyasi sohasida kasaba uyushmalarining hamkorlik strategiyalarini ilgari surish” mavzuida xalqaro seminar o‘tkazildi.

Anjuman

Unda XMT, O‘zbekiston, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Ozarbayjon vakillari ishtirok etdi.

Anjumanda Markaziy Osiyoda mehnat bozoridagi holat, unda tashqi migratsiyaning o‘rni, XMTning “Mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi 97-sonli (qayta ko‘rib chiqilgan) va “Migrant mehnatkashlar to‘g‘risida”gi (qo‘shimcha qoidalar kiritilgan) 143-sonli konvensiyalarini ratifikatsiya qilishni ilgari surish, submintaqadagi mehnat migratsiyasi muammolariga urg‘u bergan holda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda Markaziy Osiyo kasaba uyushmalarining roli, inqiroz sharoitlarida iqtisodiy rivojlanish – inqirozdan chiqish bo‘yicha strategiyalar, mintaqada suv resurslarini barqaror boshqarish va iqtisodiy rivojlanish uchun ulardan samarali foydalanish kabi masalalar muhokama etildi.

Taqdimotlarda so‘zga chiqqan milliy kasaba uyushmalari markazlari vakillari o‘z mamlakatlaridagi demografik, mehnat bozori va mehnat migratsiyasi holati, uning mamlakat iqtisodiyoti va aholining turmush tarzida tutgan o‘rni haqida to‘xtalib o‘tdilar.

Shuningdek, kasaba uyushmalari va XMT vakillari mehnat muhojirlarining huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy himoyasini ta’minlash, ularni



tilga, kasbga o‘qitish, muammolarini hal qilishga ko‘maklashish va bunda kasaba uyushmalarining faolligini yanada oshirish, mehnat muhofazasi, xavfsiz va munosib mehnat sharoitlari yaratilishiga erishish maqsadida mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish masalalarini muhokamadan o‘tkazdilar.

Xalqaro seminarda ishtirok etgan O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bo‘limi yetakchi mutaxassisi Ruslan Rahmonov mamlakatdagi demografik va mehnat bozori holati, tashqi mehnat migratsiyasi va muhojirlarning ijtimoiy, huquqiy himoyasi, ularning oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hukumat va kasaba uyushmalari tomonidan olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etdi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi mudiri Nodira Gaibnazarova esa suv resurslaridan samarali foydalanish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda “yashil” ish o‘rinlari yaratish masalalari, ularning huquqiy asosi va amaliy tajribalar, bunda kasaba uyushmalarining o‘rni haqidagi tahliliy ma’lumotlar bilan o‘rtoqlashdi.

Seminar davomida ish o‘rinlarining avtomatlashtirilishi, sun’iy intellektning mehnat bozoriga faol kirib kelishi, bandlik, iqlim o‘zgarishi kabi omillarning mehnat bozoriga ijobiy va salbiy ta’sirlari hamda muammolarning yechimlari xususida ham fikr almashildi.

XMTning mehnatkashlar faoliyati bo‘yicha byurosining Yevropa va Markaziy Osiyo shu’basi mudiri Sergeyus Glovaskas kasaba uyushmalari qoshida tashkil etilgan Call-markazlar mehnat muhojirlariga sohaga oid maslahatlar berib borishini tashkil etish, ular masalalarini milliy darajada bosh jamoa kelishuvi orqali hal etish takliflarini bildirdi. Shu bilan birga, kasaba uyushmalari tomonidan mehnat muhojirlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularni sog‘lomlashtirish, huquqiy maslahat berish kabi yo‘nalishlardagi ishlarning yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq ekanligini qayd etdi.

XMTning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari uchun byurosi katta mutaxassisi Gocha Aleksandria bugungi kunda dunyo bo‘yicha 169 mln. kishi tashqi mehnat migratsiyasida ekanligi, lekin ular o‘sha davlat fuqarolariga nisbatan 25 foiz kam ish haqi olishi, ular o‘rtasida majburiy mehnat xavfi ham yuqoriroq ekanligini aytib o‘tdi. Shuningdek, XMTning barcha qabul qilgan konvensiyalari mehnat muhojirlariga ham taalluqli ekanligi, ya’ni ularda ham barcha mehnat huquqlari bo‘lishi kerakligini alohida ta’kidladi.

Seminarda Orol dengizi fojiasi va uning mintaqa iqlimi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’siri, buning natijasida mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, ko‘plab ish o‘rinlari yo‘qotilgani, suv resurslaridan oqilona foydalanish xususida ham so‘z bordi.

Yakunda bildirilgan takliflarni umumlashtirgan holda Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashining navbatdagi majlisi muhokamasiga kiritishga kelishib olindi.

Muhabbat O‘RMONBEKOVA,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari.

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

Turk dunyosi tadqiqotlar markazida

Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi, Turkiya madaniyat va turizm vazirligi, Turkiyaning Chankiri Karatekin universiteti hamda Qo‘qon davlat pedagogika instituti hamkorligida Boku shahrida III xalqaro turkologiya kongressi bo‘lib o‘tdi.



Ozarbayjon, Turkiya, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘izistonning oliy ta’lim muassasalari rektorlari hamda vakillari, shuningdek, ilmiy muassasa va tashkilotlarning xodimlari qatnashgan ushbu tadbirda til, adabiyot, folklor, madaniyat, tarix, san’at, ijtimoiy siyosat va migratsiya tadqiqotlari, sotsiologiya, ekologiya, xalqaro munosabatlar kabi dolzarb mavzular muhokama qilindi.

Kongress turk dunyosi milliy madaniyati hamda madaniy merosi kontekstida olib borilgan tadqiqotlar orqali moddiy va ma’naviy merosning ahamiyati, madaniy merosni saqlash, ijtimoiy fanlarning madaniy merosga ta’siri kabi masalalarni tahlil etish, ishtirokchi mamlakatlarning akademik muassasalari o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ziyolilar bog‘i barpo etildi

“Yangi Andijon” massivida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida viloyat oliy ta’lim muassasalari rektorlari tashabbusi bilan “Ziyolilar bog‘i” barpo etilmoqda.



Unda Andijon viloyati hokimi boshchiligidagi mutasaddilar, oliy ta’lim muassasalaridan jami 300 ga yaqin professor-o‘qituvchilar hamda ko‘ngilli talaba-yoshlar qatnashdi.

Aksiya davomida viloyat oliy ta’lim muassasalari jamoasi 6 gektar maydonga mingga yaqin manzarali hamda pavlovniya daraxt ko‘chatlari o‘tqazib, ko‘kalamzorlashtirish ishlariga samarali hissa qo‘shdi.

O‘zbek sportchisiga teng keladigani topilmadi

Butunjahon taekvondo federatsiyasi (WT) 2024-yilning eng yaxshilarini aniqlash uchun sportchilar va murabbiylarning ovoz berish natijalarini e’lon qildi.



Ovoz berish natijalariga ko‘ra, yilning eng yaxshi erkak sportchisi nominatsiyasida milliy terma jamoamiz a’zosi, ikki karra Olimpiya o‘yinlari g‘olibi Ulug‘bek Rashitov g‘olib bo‘ldi.

Taqdirlash marosimi Gonkongda davom etayotgan pumse bo‘yicha jahon chempionati doirasida bo‘lib o‘tdi. Unda Ulug‘bek Rashitov ham ishtirok etib, Butunjahon taekvondo federatsiyasi bosh kotibi Seo Jeongkangdan sovrinni qabul qilib oldi.

“Xalq so‘zi”.

REKLAMA

E’LON

O‘zbekiston Respublikasi Notarial palatasining navbatdagi II konferensiyasi 2024-yil 28-dekabr kuni soat 10:00 da Toshkent davlat yuridik universitetining konferensiya zalida boshlanadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur shohko‘chasi, 13-uy.

Jahon dramaturgiyasi namunalaridan tarjima qilingan asarlar bo‘yicha har yili “Eng yaxshi tarjima sahna asarlari” tanlovi joriy etiladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-2142. 10 908 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.10 Topshirildi — 23.50 1 2 3 4 5 6